

Chakana kreditlash qo'mitasining
2025 yil "22" oktyabr dagi
2025-48 - sonli
majlis bayoniga 1-sonli ilova

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	ROODELL - «Кредит»
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, 18 yoshga to'lgan jismoniy shaxs
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm.
Kredit miqdori	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, kredit hisobiga sotib olinayotgan avtotransport vositasi narxining 75% miqdorigacha
Kredit maqsadi	“ROODELL” MCHJning rasmiy dillerlari tomonidan yetkazib beriladigan Kia, Chery va boshqa rusumidagi avtomashinalarni sotib olish uchun
Kredit muddati	Imtiyozli davrsiz, 60 oydan oshmagan muddatgacha
Taqdim etish shakli	“ROODELL” MCHJning hisob raqamiga pul ko'chirish yo'li orqali
Boshlang'ich to'lov	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, kredit hisobiga sotib olinayotgan avtotransport vositasi narxining 25% dan kam bo'lmagan miqdorida;
Foiz stavkasi	• Boshlang'ich to'lov 25% dan 30% gacha bo'lganda: 12 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 1,5 % 18 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 11,0 % 24 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 14,5 % 36 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 18,5 % 48 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 20,5 % 60 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 22,0 % • Boshlang'ich to'lov 30% dan 40% gacha bo'lganda: 12 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 18 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 9,5 % 24 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 14,0 % 36 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 18,0 % 48 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 20,0 % 60 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 21,5 % • Boshlang'ich to'lov 40% dan 50% gacha bo'lganda: 12 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 18 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 6,5 % 24 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 11,0 % 36 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 16,0 % 48 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 18,5 % 60 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 20,0 % • Boshlang'ich to'lov 50% dan 60% gacha bo'lganda:

	12 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 18 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 2,0 % 24 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 7,5 % 36 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 13,5 % 48 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 16,5 % 60 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 18,5 % • Boshlang'ich to'lov 60% dan 70% gacha bo'lganda: 12 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 18 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 24 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 2,0 % 36 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 9,5 % 48 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 13,5 % 60 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 16,0 % • Boshlang'ich to'lov 70% va undan yuqori bo'lganda: 12 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 18 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 24 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 0,0 % 36 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 3,0 % 48 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 8,0 % 60 oydan oshmagan muddatgacha - yillik 11,0 %.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); B) Avtotransport vositasining oldi-sotdi shartnomasi; C) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar; D) O'zini-o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma (<i>kredit o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga ajratilganda</i>); E) Mijozning turmush o'rtog'i mavjud xollarda turmush o'rtogining kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasining garovga taqdim etilishiga rozilik arizasi, turmush o'rtog'i mavjud bo'lmagan xollarda, mijoz tomonidan kredit ajratish uchun ariza berilgan kunga nikohi mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat; Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi. Agar Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlarini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, o'rtacha oylik daromadlarini va boshqa daromad manbalarini tasdiqlovchi hujjatlar Qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin.
Kredit ta'minoti	• Ajratiladigan kredit, kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan miqdordagi ta'minot bilan ta'minladi. Bunda; • Asosiy ta'minot – sotib olinadigan avtotransport vositasi (avtotransport narxining 70% gacha bo'lgan qiymati ta'minot qiymati sifatida qabul qilinadi); • Qo'shimcha ta'minot - sug'urta tashkilotining kredit va foizlar qaytmaslik xavfini sug'urta qilish polisi (kredit ta'minoti qiymatining 30% gacha bo'lgan qismiga).

	• Kredit bo'yicha majburiyatlarni vaqtincha ta'minlash (asosiy ta'minot garov shartnomasini notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda rasmiylashtirilguniga qadar) – sug'urta tashkilotining kredit va foizlar qaytmaslik xavfini sug'urta qilish polisi. • Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha ta'minot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan miqdorda qo'shimcha ravishda qabul qilinadi.
Kreditni qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differensial to'lov usulida amalga oshiriladi.
Qo'shimcha shartlar	• Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining alohida sof daromadi BHMning 6 barobaridan kam bo'lmasligi lozim. • Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchining jami o'rtacha sof daromadining 50 foizi kredit bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlarni bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun yetarli bo'lishi lozim. • Ushbu kredit mahsuloti bo'yicha NPL ning eng yuqori miqdori 5% dan oshmasligi lozim.
Alohida shartlar	* Ushbu shartlar asosida kredit ajratish bo'yicha qaror qilish vakolati Chakana kreditlash boshqarmasi Andarrayting bo'limiga beriladi. * Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi. Bunda; 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi; 60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi; * MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi.